Abu Rayxon Beruniyning asarlarini tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari

Abdulla Mansurov Sayfullayevich
Namangan muhandislik texnologiya instituti katta o‘qituvchisi

Amerikalik olim XI asrni bejizga Beruniy asri deb e`lon qilmadi. Bu shu davrda ijod qilgan barcha olimlarning eng a`losi demakdir. Abu Rayhon Beruniy — o’rta asrlarda yashab, ijod qilgan buyuk allomaning to’liq ismi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Al-Beruniy bo’lib, Abu Rayhon kunyasi, ya’ni Rayhonning otasi deganidir. Muhammad mutaffakirning ismi, Beruniy esa taxallusidir. Shu bilan yana bir versiyaga ko`ra Beruniy deb atalishi, u ona tomondan saroy ahillaridan, otasi esa saroy tashqarisidan ekanligi sababli, forscha berin- (ya`ni tashqarilik) kunyasini olgan degan shaqshunos olimlar ham bor. Alloma 973-yil 9-sentabrda Xorazmning qadimiy poytaxti Kat shahrida tavallud topgan. Al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur o‘rgandi. U juda yoshligidan ilm va fanga qiziqqan.

Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo’lida ta’lim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag‘ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, so‘g‘diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o‘rganadi [1].

Abu Rayhon Beruniy o‘z zamonining ko‘pchilik fanlarini, birinchi navbatda falakiyot, fizika, riyoziyot, madanshunoslik, geografiya, geologiya, etnologiya, tarix, jamiyatshunoslik, ilohiyot, tilshunoslik fanlarini puxta egallagan va bu fanlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi natijasida uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. Beruniy keyingi avlodlarga buyuk ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o‘z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq turli hajmdagi asarlar yaratgani ma’lum. Bu borada Sharqshunos olimlar ta’kidlaganidek, “Beruniy turli fan sohalariga qo‘shgan hissasini 150 dan ortiq asarlaridan ham ko’rish mumkin. Ulardan eng yiriklari - “Hindiston”, “O‘tmish xalqlaridan qolgan yodgorliklar”, “Qonuni Ma’sudiy”, “Geodeziya”, “Mineralogiya”, “Astronomiya” kabi asarlaridir. Qolganlarini quyidagicha taqsimlash mumkin: Matematikaga oid 22 ta , astranomik asboblar haqida 10 ta, astralogiyaga oid 21 ta, turli fanlar (fizika, mineralogiya, adabiyot, tarix va boshqa) 38 ta. Turli tillardan tarjima qilingan asarlar 21 ta. Afsuski, Beruniyning bu asarlaridan 30 ga yaqini bugungi kunga qadar yetib kelgan”[2].

Allomaning 152 asari ma’lum bo’lib, bizgacha uning faqat 30 tasi yetib kelgan. Jami asarlarining 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi mineralogiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka, 15 tasi tarix va etnografiyaga, 4 tasi falsafaga, 18 tasi adabiyotga bag’ishlangan [3].

Beruniy yozgan har bir asar o’ziga xos ensiklopediya edi. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” da Xorazmda o’tgan xalqlar — qadimgi yahudiylar, nasroniylar, majusiylar va musulmonlarning urf-odatlari, an’analari, bayramlari, taqvimlari, dinlari, payg’ambarlari, muqaddas kitoblari haqidagi barcha ma’lumotlar to’plangan.

---

[1] Ma’naviyat yulduzlari “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2001 95-b

[2] Булгаков П. Г. Абу Райҳон Беруний.– Тошкент: Фан, 1966. – Б. 6.

[3] Imom Buxoriy Xalqaro Ilmiy-Tadqiqot Marzaki, O’zbekistondagi islom sivilizatsiya markazi “Abu Rayhon Beruniy” IBXITM-2022 6-7-b

Har bir xalqning, mamlakatning ijtimoiy hayoti o'ziga xos ishlab chiqarish usuli asosida mavjud. Shu bilan birga o'tmish ajdodlarning rasm-rusmlari, turmush qoidalari va ular haqidagi boshqa xabarlar makon va zamon bilan bog'lagan holda shu asarni yozgan. Bu asarda o'rta asrlardagi xalqlar hamda ularning turmush tarzi haqida yozilgan bo'lib, shu davrning eng noyob kitoblaridan biri hisoblanadi.

Beruniyning yana bir mashhur kitoblaridan biri "Qonuni Ma'sudiy" eng yirik astronomik asaridir. Yoqut Hamaviyning aytishicha, bu asar astronomiya va matematika sohasida ilgari yozilgan barcha asarlardan ustun bo'lgan [4]. Alloma bu astronomiyaga oid asarini sulton Ma'sudga bag'ishlagan. "Qonuni Ma'sudiy"da matematik astronomiyaning asosiy qoidalari, yoritqichlarning koordinatalari, harakatlanish tartibini hisoblab chiqish yo'llari batafsil tushuntirilgan bo'lib, bu kitobda bayon etilgan ta'limotlarni aksariyatini buyuk alloma Qur'on oyatlari bilan solishtirgan. O'rta asrlarda ko'plab olimlar faoliyat yuritgan bo'lsa ham Beruniyning ilmiy faoliyati juda qiziq. Chunki u faqat bir soha yo'nalishida emas balki, ko'plab sohalarda bilimlarini oshirdi.

Abu Rayhon Beruniyning yirik asarlaridan biri "Hindiston" kitobidir. Bu asarning to'liq nomi "Kitobu fi tahqiqi mo lil hind min ma'qulatin maqbulatin fil aqli av marzulatin" (Hindlarning aqliga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi) bo'lib, bu nom ancha uzun va aytishga noqulay bo'lganligi sababli qisqacha "Tahqiqu mo lil Hind" (Hindistonga oid tahqiqlar) yoki "Hindiston" deb qo'ya qolinadi [5].

Allomaning "Hindiston" asarida hind xalqlari tarixining turli sohalari: adabiyot, falsafa, etnografiya, geografiya, demografiya, qonunlar, urf-odatlar, din, diniy rivoyatlar, hind yozuvining turlari va e'tiqod usullari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Qomusiy olimning bundan tashqari yana bir qator juda foydali asarlari mavjud bo'lib, bizgacha barcha kitoblari yetib kelmagan. Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan uning bizgacha yetib kelgan asarlaridan ko'plab bilimlarga ega bo'ldik. U nafaqat asar va kitoblari bilan balki, falsafiy fikrlari, juda katta ma'noga ega hikmatlari bilan ham mashhurdir.

Abu Rayhon Beruniy fanning hamma sohalarida samarali ijod qilgan. Uning ilmiy merosi juda keng va rang-barang. Beruniyning ilmiy ish sohasidagi zo‘r qobilyati uning ko‘pchilik zamondoshlari va keyingi olimlar tomonodan e'tirof etilgan. 1035-1036-yillarda Beruniy o‘z ilmiy ishlarining ro‘yxatini tuzadi. Bunda shu vaqtgacha yozgan kitob va risolalari 113 taga yetgani ko‘rsatilgan. Keyingi yozgan asarlarini ham qo‘shsak u qoldirgan ilmiy meros 152 kitob va risoladan iborat[6].

Tarixda Vatanimiz hududidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar orasida Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi jahon olimlari e'tiborini nisbatan kechroq jalb qilgan. Albatta, buning o‘ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv sabablari mavjud. Bu sabablarning ayrimlari tasodifiy xarakterga ega bo‘lishi ham mumkin, ya'ni alloma asarlarining qo‘lyozmalari o‘z vaqtida ilmiy tasarrufga kiritilmagani, ba'zilari kam nusxada bo‘lgani kabi sabablar shular jumlasidandir. Lekin Beruniyning nomi G‘arb ilm-fani gullab rivojlana boshlagan yangi tarixiy davrda Yevropa qit'asiga

---

[4] Abu Rayhon Beruniy "Qonuni Ma'sudiy" asari. Tanlangan asarlar 1-kitob. Toshkent-1973, 7-b

[5] Abu Rayhon Beruniy "Hindiston" asari. Tanlangan asarlar II tom. O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. Toshkent -1965 3-b

[6] Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент:Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 720.

kirib borgani, albatta, bejiz bo‘lmagan. Shubhasizki, bu eng avvalo Beruniy ilmiy merosida novatorlik, tajribaviy, uslubiy-nazariy yondashuvlarning chambarchas bog‘liqligi va tadqiqotlarning tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-ma’naviy jihatdan o‘zaro aloqadorligi hamda shulardan kelib chiqadigan xulosalarning ilm-fan taraqqiyotidan ilgarilab ketishi kabi xususiyatlarning yaqqol namoyon bo‘lishi, allomaning ilmiy bashorat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgani, zamonlar o‘tishi bilan u tadqiq etgan masalalar dolzarbligining yanada ortib borishi bilan izohlanadi. Shuning uchun ham Yevropa olimlari Beruniyning birinchi asari bilan tanishishlaridanoq, ularda buyuk vatandoshimizning ilmiy merosiga bo‘lgan qiziqish kuchaygan. Shundan so‘ng olim asarlarini tadqiq etish ishlari kutilmagan sur’atda rivojlandi va uning deyarli barcha asarlari tadqiqot ob’ektiga aylandi.

Abu Rayhon Beruniy to’g’risida eng tugal ta’rifni yirik nemis sharqshunosi Karl Eduard Zaxau bergan: “Dunyoda tog’lar ko’p, lekin ular orasida shunchalik yuksak bir cho’qqi borki, bu cho’qqini insoniyat hech qachon zabt etolmaydi. Bu –Beruniydir[7]”.

XIII asrda yashagan yana bir suriyalik tarixchi va tabib Xristian Ioann Bar Ebrey (1226-1286) Beruniyga shunday baho beradi: “O‘sha o‘tgan yillarda yunon va hind falsafasi dengizini kechib o‘tgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy o‘tmish ilmlarda shuhrat qozondi. U matematika ilmlarida mutaxassis bo‘lib, bu sohada qator muhim kitoblar yaratdi. Hindistonga borib, u yerda bir necha yil yashadi, hind faylasuflaridan ularning san’atini o‘rgandi va ularga yunon falsafasini o‘rgatdi. “Kitob ul-hind” asari Hindiston haqida yozilgan ilk noyob ilmiy asarlardan biri bo‘lgan. Uning asarlari nihoyatda ko‘p, yetuk va nihoyatda ishonchlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati:

1. Ma’naviyat yulduzlari “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2001 95-b
2. Булгаков П. Г. Абу Райҳон Беруний.– Тошкент: Фан, 1966. – Б. 6.
3. Imom Buxoriy Xalqaro Ilmiy-Tadqiqot Marzaki, O’zbekistondagi islom sivilizatsiya markazi “Abu Rayhon Beruniy” IBXITM-2022 6-7-b
4. Abu Rayhon Beruniy “Qonuni Ma’sudiy” asari. Tanlangan asarlar 1-kitob. Toshkent-1973, 7-b
5. Abu Rayhon Beruniy “Hindiston” asari. Tanlangan asarlar II tom. O’zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. Toshkent -1965 3-b
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент:Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 720.

[7] http://ferpi.uz/sites/default/files/_1kursga eslatma malumotlari.pdf 03.05.2016. soat 13:09

https://wordlyknowledge.uz